



MINTAQA SANOATINING TEXNOLOGIK RIVOJLANISHIDA INNOVATSIYALARNING O'RNI

Abdinazarov Xusan Shaymanovich

*Qarshi davlat texnika universiteti "Biznes va boshqaruv" kafedrası
o'qituvchisi.*

<https://orcid.org/0009-0002-1464-9428>

xabdunazarov0770@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada Qashqadaryo viloyati misolida mintaqa sanoatini texnologik jihatdan barqarorlashtirish jarayonida innovatsion muhitning o'rni va ahamiyati ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqotda innovatsion rivojlanishni baholovchi asosiy ko'rsatkichlar, jumladan ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalari (ITTKI) xarajatlari, innovatsion faol korxonalar soni hamda innovatsion mahsulotlar hajmi statistik ma'lumotlar asosida yoritilgan. Tahlil natijalari mintaqa sanoatining texnologik barqarorligini ta'minlashda innovatsion infratuzilmani rivojlantirish va ilmiy-texnik salohiyatdan samarali foydalanish zarurligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: mintaqa sanoati, texnologik barqarorlik, innovatsion muhit, ITTKI (R&D), texnologik daraja.

Kirish. Bugungi kunda global iqtisodiy makonda yuz berayotgan chuqur texnologik siljishlar va innovatsion rivojlanish tendensiyalari mintaqalar sanoatini rivojlantirishga bo'lgan an'anaviy yondashuvlarni tubdan qayta ko'rib chiqishni taqozo etmoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev farmon va qarorlarida hududiy sanoatni rivojlantirishda eskirgan ishlab chiqarish fondlarini bosqichma-bosqich modernizatsiya qilish, ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalarini qo'llab-quvvatlash hamda yuqori texnologiyali mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish asosiy yo'nalishlar sifatida belgilangan. Ushbu hujjatlarda innovatsion faoliyat sanoat samaradorligini oshirish va mintaqalar o'rtasidagi iqtisodiy



tafovutlarni qisqartirishning muhim omili sifatida qaraladi. Shuningdek, strategik hujjatlarda hududlarda innovatsion infratuzilmani rivojlantirish, jumladan texnoparklar, sanoat zonalar va klasterlarni tashkil etish orqali sanoat va ilm-fan o'rtasidagi integratsiyani kuchaytirish vazifalari belgilangan. Bu jarayon mintaq sanoatining texnologik moslashuvchanligini oshirish, ishlab chiqarish jarayonlarining uzluksizligini ta'minlash hamda investitsiyaviy jozibadorlikni kuchaytirishga xizmat qiladi.

Ushbu maqolada Qashqadaryo viloyati sharoitda mintaq sanoatining texnologik barqarorligi, hududiy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini ta'minlash, ishlab chiqarish jarayonlarining uzluksizligini saqlash hamda iqtisodiy o'sishning barqaror sur'atlariga erishishda hal qiluvchi omillarni o'rganish muhimligi ko'rib chiqiladi. Innovatsion muhit mintaq sanoatini texnologik jihatdan barqarorlashtirishning muhim institutsional asosi hisoblanadi. Ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik faoliyati sanoat ishlab chiqarishida innovatsion jarayonlarning asosiy manbai hisoblanadi. R&D faoliyatiga yo'naltirilgan investitsiyalar yangi mahsulotlarni ishlab chiqish, ishlab chiqarish jarayonlarini modernizatsiya qilish va texnologik samaradorlikni oshirish imkonini beradi.

Quyidagi jadvalda sanoat rivojlanishida innovatsion muhitni ifodalovchi asosiy ko'rsatkichlarning dinamikasi keltirilgan.

1-jadval.

Mintaqa sanoatida innovatsion rivojlanish ko'rsatkichlari (2021–2024 yy.)

Yillar	R&D xarajatlari (mlrd so'm)	Innovatsion faol korxonalar ulushi (%)	Texnologik yangilanish darajasi (%)	Yuqori texnologiyali mahsulotlar ulushi (%)
2021	1 250	18,4	21,7	9,6
2022	1 480	20,1	24,3	11,2
2023	1 760	22,8	27,9	13,5



2024	2 050	25,4	31,6	15,9
------	-------	------	------	------

Jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, tahlil qilinayotgan davrda ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik faoliyatiga yo'naltirilgan xarajatlarning izchil o'sishi innovatsion faol korxonalar ulushining oshishi bilan uyg'unlashgan. Bu holat mintaqa sanoatida texnologik yangilanish jarayonlarining faollashayotganini va innovatsion muhitning mustahkamlanib borayotganini tasdiqlaydi.

Xulosa. O'tkazilgan ilmiy-statistik tahlillar shuni ko'rsatadiki, mintaqa sanoatini texnologik jihatdan barqarorlashtirish zamonaviy innovatsiyalar yondashuvlari bilan uzviy bog'liq bo'lib, ushbu jarayon hududiy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Innovatsion muhitni rivojlantirish, ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo'llab-quvvatlash va texnologik darajani izchil oshirish mintaqa sanoatining raqobatbardoshligini kuchaytiruvchi asosiy omillar sifatida namoyon bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR VA MANBALAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60 Farmoni. -Toshkent, 2022. // <https://lex.uz>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. "Sanoat tarmoqlarini texnologik modernizatsiya qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4077 qarori. — Toshkent, 2018. // <https://lex.uz>
3. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. O'zbekiston sanoatining asosiy ko'rsatkichlari. — Toshkent, 2021–2024. <https://stat.uz/>
4. Wooldridge J.M. Introductory Econometrics: A Modern Approach. — Boston: Cengage Learning, 2016. https://books.google.co.uz/books/about/Introductory_Econometrics_A_Modern
5. Baltagi B.H. Econometric Analysis of Panel Data. — Chichester: John Wiley & Sons, 2013. https://books.google.com/books/about/Econometric_Analysis_of
6. D.A. Raxmatullayev (2025). Maqola Qashqadaryo sanoatining innovatsion yo'nalishlari tahlilini beradi. <https://cyberleninka.ru/article/n/qashqadaryo-viloyati-sanoatini-innovatsion-rivojlan>



7. M. Azizova “The Impact of Innovation on the Growth of Economic Competitiveness in Uzbekistan”

https://www.researchgate.net/publication/385577622_The_Impact_of_Innovation_on_the_Growth